

**ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

Nurmatova Nargiza Saidovna

Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahar
24-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kichik tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning mustaqil izlanishi, ilmiy manbalar bilan ishlashi, axborotni izlash va saralashi, matnlarni qiyosiy-mazmunli tahlil qilishi hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishi tadqiqotchilik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida asoslangan. Adabiyot darslarida raqamli ta'lim resurslari, multimedia, interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, raqamli platformalar va virtual kutubxonalardan foydalanishning o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning nazariy, amaliy va psixologik jihatlarini o'zaro integratsiyada ko'rib chiqilib, motivatsion-qadriyatli, bilim-nazariy, amaliy-tadqiqotchilik va raqamli-texnologik komponentlarning ahamiyati asoslangan. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodik tizimning o'quvchilarning kichik tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlagan.

Kalit so'zlar: kichik tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqotchilik kompetensiyasi, umumiy o'rta ta'lim, adabiyot darslari, raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, ilmiy izlanish, mustaqil ta'lim, ilmiy manbalar, qiyosiy-mazmunli tahlil, kreativ fikrlash, tanqidiy

fikrlash, raqamli savodxonlik, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, multimedia, elektron resurslar.

KIRISH

Biz uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standarti hamda mutaxassislarni tayyorlashning malaka talablarini tahlil qilar ekanmiz: “kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonida darslarni o'tkazishning faol va interaktiv shakllaridan (kompyuter simulyatsiyasi, ishchlik-rolli o'yinlar, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, psixologik va boshqa treninglar) sinfdan tashqari ishlar bilan birgalikda o'quvchilarning kasbiy malakalarini, jumladan tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish orqali amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan”ligini ko'ramiz.

O'quvchilar bilim faoliyatini, raqamli va interfaol dars shakllarini ta'lim jarayoniga samarali joriy etish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Bu boradagi eng samarali yondashuvlardan biri - dars ta'lim modelining o'quv jarayoniga integratsiyasidir. Mazkur yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi konstruktiv yangilanishlarni amalga oshirishni taqazo qiladi. Mahalliy olimlar va mutaxassislarning fikricha, dars ta'lim modeli ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda yuqori salohiyatga ega bo'lib, uni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi hamda natijasi yuzaga chiqadi [1].

Mamlakatning yetakchi olimlari tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim oluvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirish maqsadiga ta'lim kontekstida erishish mumkin. Chunki masofaviy yoki elektron ta'lim muhitida o'tkaziladigan mashg'ulotning tarkibida o'quvchilar mustaqil ishining nisbati yuqori bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarga tushunarli va qulay istalgan vaqtlarida ta'lim resurslaridan maqsadli, cheksiz foydalanish imkoniyati beriladi. Turli shakldagi ta'lim resurslari bilan ishlash orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik va ijodiy faoliyat

olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu o‘z navbatida ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, olingan bilimlarni kengaytirib, mustahkamlaydi hamda o‘rganilayotgan fanga qiziqishni oshiradi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turli ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, dars ta’lim modeli o‘quvchilarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish va o‘quv jarayoniga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, bu yondashuv ta’lim resurslaridan oqilona va iqtisodiy jihatdan tejamkor foydalanish imkonini beradi, chunki onlayn platformalarda taqdim etiladigan kurslar va materiallar keng talaba auditoriyasi uchun qulay va erkin foydalanish imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarni kichik tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalasi tizimli, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va raqamli-ta’limiy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, ilmiy manbalar bilan ishlashi, axborotni tahlil qilishi, qiyosiy-mazmunli xulosa chiqarishi va tadqiqot natijalarini taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqotda o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligi motivatsion-qadriyatli, bilim-nazariy, amaliy-tadqiqotchilik va raqamli-texnologik mezonlar asosida baholandi. Mazkur mezonlar o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatiga qiziqishi va motivatsiyasi, tadqiqot metodlari haqidagi nazariy bilimlari, mustaqil tadqiqot topshiriqlarini bajarish qobiliyati hamda raqamli vositalardan ilmiy-izlanish jarayonida foydalanish darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, test, qiyosiy tahlil, pedagogik eksperiment va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning kichik tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda raqamli matnlar, elektron

ta'lim resurslari, multimedia vositalari va boshqa raqamli manbalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi [3].

Shuningdek, tadqiqot metodikasida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini faollashtiruvchi vosita sifatida qaraldi. Raqamli muhit o'quvchilarga zarur manbalarni tezkor topish, axborotni saralash va tahlil qilish, natijalarni elektron shaklda rasmiylashtirish hamda taqdim etish imkonini berdi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi **nazariy bilim → raqamli axborot bilan ishlash → mustaqil izlanish → amaliy tadqiqot → qiyosiy tahlil → ilmiy xulosa** ketma-ketligi asosida tashkil etilib, o'quvchilarning kichik tadqiqotchilik kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga yo'naltirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'limda, xususan, adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kichik tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratishini ko'rsatdi. Tajriba jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlashi, axborotni izlash va saralashi, elektron manbalar bilan ishlashi, badiiy matnlarni qiyosiy tahlil qilishi hamda o'z xulosalarini asoslash faoliyatini faollashtirdi.

Tadqiqotda o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish motivatsion-qadriyatli, bilim-nazariy, amaliy-tadqiqotchilik va raqamli-texnologik mezonlar asosida baholandi. Olingan natijalar raqamli texnologiyalarni an'anaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil topshiriqlarni bajarish faolligini kuchaytirish va ilmiy axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi [4].

Ayniqsa, elektron matnlar, raqamli ta'lim resurslari, multimedia materiallari, onlayn topshiriqlar, testlar, videokonferensiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarga individual ta'lim trayektoriyasi

asosida ishlash imkonini berdi. Bunday ta'lim muhiti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va qiziqishidan kelib chiqib topshiriqlarni tanlash, mustaqil ishlash va o'z natijalarini baholash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar an'anaviy darsni to'liq almashtiruvchi vosita emas, balki uni to'ldiruvchi va o'quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini kengaytiruvchi pedagogik vosita sifatida samaraliroq namoyon bo'ladi. Shu sababli raqamli va an'anaviy ta'lim shakllarini uyg'unlashtirish, ayniqsa, gumanitar fanlar, jumladan, adabiyot fanini o'qitishda muhim metodik shartlardan biri hisoblanadi.

Mazkur natijalar aralash ta'lim modelining o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va ta'lim mazmunini raqamli muhit orqali kengaytirishdagi imkoniyatlarini ham tasdiqlaydi. Shu jihatdan, an'anaviy va elektron ta'limning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ta'limiy natijalarini oshirish bilan bir qatorda, ularning tadqiqotchilik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin [5].

Aynan shu nuqtada L. Babaxodjayeva tadqiqotlarida ilgari surilgan qarashlar yuqoridagi natijalar bilan mazmunan uyg'unlashadi. Uning fikricha: "An'anaviy va elektron ta'limning kombinatsiyasi ehtiyotkorlik bilan aniq tuzilib, to'g'ri tashkil etilishi kerak. Tashkiliy va tarkibiy jihatdan o'rganish optimal natijalarga erishishga bog'liq, chunki raqamli ta'lim jarayonining barcha elementlari ayniqsa, gumanitar fanlarni o'qitishda o'zaro ta'sir qilishi va bir-birini to'ldirishi, bir butunlikni tashkil qilishi kerak bo'ladi. Sinfda mavjud bo'lmagan topshiriq turlarini taklif qilgan holda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga elektron muhitda ishlash (zoom, forumlar, chatlar, webinarlar, so'rovnomalar va boshqalar) yordam beradi. Aralash ta'limning joriy etilishi bilan elektron muhitda bir zumda nashr qilish imkoniyati tufayli yuqori sifatli materiallarni etkazib berish tezligi oshadi, o'quvchilarning individual faoliyat trayektoriyasi ham kengayib boradi.

ilmiy –amaliy anjuman

Adabiyot darslarida turli xil onlayn topshiriqlar va testlar o'quvchiga individual trayektoriyani yaratish imkoniyatini berib, bu shubhasiz har bir o'quvchilar uchun fanlarni ijobiy o'zlashtirishiga olib keladi" [6].

Ushbu tadqiqotlar maktab ta'limida samarali yondashuv bo'lishi mumkinligini, ayniqsa o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va yutuqlarini, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarador ekanligini ko'rsatdi.

Biz raqamli ta'lim modelining o'quvchilarda kasbiy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdagi vazifalarini aniqlashda T.A.Kryukova tomonidan ilgari surilgan kasbiy kompetentlikning asosiy funksiyalarini nazariy asos sifatida qabul qildik va ularni quyidagicha amaliyotda ishlatib tavsifladik:

Gnoseologik (bilimga yo'naltirilgan) funksiya – bu pedagogik jarayonda darsni tashkil etish uchun zarur bo'lgan usullarni chuqur o'rganish, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo'lishni nazarda tutadi. Shuningdek, bu funksiya adabiyot darslarida o'quvchi o'z shaxsiy xususiyatlarini anglab, ularni tahlil qilish, muammolarning ilmiy asoslarini o'rganish, ularni tavsiflash, tahlil qilish va tushuntirish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Konstruktiv funksiya – darsda o'quv jarayonini raqamli rejalashtirish, uni qurish, ta'lim resurslarini tanlash va tuzish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun metodik jihatdan o'quvchilarga ta'lim olishida harakatlarini rejalashtirish, shuningdek, moddiy-texnik bazani shakllantirishga oid malakani o'z ichiga oladi.

Tashkiliy funksiya – o'quvchilarni turli raqamli pedagogik va amaliy faoliyat turlariga ya'ni darsga jalb etish, jamoaviy ishlarni tashkil qilish, hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlarni samarali boshqarishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ funksiya – o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar, tengdoshlar, ota-onalar hamda jamoatchilik vakillari o'rtasida pedagogik maqsadga

muvofiq muloqot va hamkorlik aloqalarini raqqmli qonuniyatlar orqali shakllantirishni ta'minlaydi.

Ilmiy-tadqiqiy funksiya –dars samaradorligi pedagogik faoliyatga ilmiy-nazariy yondashuvni shakllantirish, evristik fikrlash asosida tadqiqotlar olib borish, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarini o'zlashtirish va qo'llab sinovdan o'tkazishni nazarda tutadi. Shuningdek, shaxsiy va boshqa mutaxassislar tajribasini tahlil qilishga tayyor bo'lishni, korreksion amaliyotda mavjud muammo yuzasidan shaxsiy ilmiy farazlarini shakllantirish anglatadi.

Refleksiv funksiya – o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, o'z salohiyati, xatolari va imkoniyatlarini baholash orqali qayta anglash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu funksiya orqali refleksiv rivojlanishga erishish va o'quv jarayoni ishtirokchilarida "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish uchun zarur pedagogik muhit yaratiladi" [7].

D.B.Yakubjanova dars pedagogning kasbiy ijodi odatda bir-biri bilan bog'liq va bir-birini taqozo etadigan ikkita ko'rinishini ajratish lozimligini ta'kidlaydi: ilmiy ijod va pedagogik ijod. Ijodiy-faol muhit o'quvchilarda manbaalar bilan ishlashda qiyosiy-mazmunli tahlil qilish, yakuniy xulosa chiqarish, pedagogik amaliyotda mavjud bo'lgan ustuvor muammolarni, ularning boshqa muammolar bilan bog'liqligini ko'ra bilish; farazlarni ilgari surish, yangi dalillarni to'plash, tizimlashtirish, tahlil qilish, izohlash, tavsiflash, ularni pedagogik nazariya va amaliyotdagi o'rinlarini belgilash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'rganilgan adabiy manbalar tahliliga ko'ra, darsning sifati va samarasi o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda tayyorgarlik darajasini aniqlovchi mezonlarni belgilashda, muhim hisoblanadi va bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari hamda innovatsion yondashuv prinsiplariga tayanish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilar tadqiqotchilik salohiyatining shakllanish darajasini baholashda quyidagi metodik mezonlardan foydalanish muhimdir:

-Darsda axborotni izlash, saralash va undan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalari — bu o‘quvchilarni mustaqil izlanishga tayyorlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi;

-Darsda ilmiy kontekstni tushunish, tahlil qilish va izohlash qobiliyati, shuningdek, ilmiy matn tuzish, fikrni asosli va aniq bayon etish layoqati — bu esa o‘quvchilarda nazariy bilimni amaliy tadqiqotga aylantira olish salohiyatini ifodalaydi.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarligining alohida ko‘rsatkichlarini shakllantirish darajasini aniqlash metodikasi va mezonlarini ishlab chiqildi. O‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligining asosiy ko‘rsatkichlarini tekshirish va ularni taqqoslashda uchta shakllanganlik darajasi mavjudligi, ayniqsa dars mashg‘ulotlarida o‘qitish metodikasiga oid manbalarda alohida ta’kidlanadi, ya’ni bular past (reproduktiv), o‘rta (qisman-izlanishli) va yuqori (produktiv). O‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga oid ko‘nikmalarni shakllanganlik darajasini aniqlashda yuqorida ko‘rsatilgan mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanib, biz bu haqida keyingi boblarda to‘xtalamiz [8].

Uzluksiz ta’lim muassasasi bugungi kun amaliyotidagi muammolarni tadqiq etish orqali o‘quvchilarni kelajak amaliyotiga raqamli axborot bilan ishlash, matnni anglash, o‘z fikriga ega yangi avlodni kelajakka tayyorlashni ko‘zda tutishi lozim. Demak, tadqiq etilayotgan muammo o‘quvchida prognozlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yo‘nalmog‘i lozim. Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, sinf-dars ta’lim modeli o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlanishida innovatsion va samarali yondashuv sifatida e’tirof etilishi joiz. Bunday qarash

o'z navbatida, ta'lim jarayonida quyidagi muayyan pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi, deb hisoblaymiz:

1. Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarning transformatsion-o'quv faoliyati uchun adaptiv o'quv muhiti yaratilishi kerak.

2. O'qituvchilar axborot kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak. Chunki ular o'quv materiallarining turli matn tuzulishini modellashtiradi va ta'lim oluvchilarga taqdim etadi. Shuningdek, o'quvchilarning ta'lim natijalarini baholashning tezkor hamda variativ instrumentlaridan foydalanishlari bugungi kun talabidir [9].

3. Umumiy ta'lim muassasasi va unga qarashli hududlarda texnik infratuzilma, elektron kutubxonalar faoliyati etarli darajada ta'minlangan bo'lishi zarur. Bunday resurslar o'z navbatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatini beradi.

Raqamli o'qitish dars modeli sifatida o'quvchilarga internet orqali ko'plab axborot va materiallardan foydalanish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Raqamli o'qitishning afzalliklaridan biri, ta'limni shaxsiylashtirish imkoniyati hisoblanib, o'quvchilarning o'z shaxsiy o'zlashtirish tempida ishlashlari va o'zlari uchun eng samarali bo'lgan ta'lim usullarini tanlashlari mumkin. Bu ularning mustaqil ishlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'qitish va ta'lim sharoitida o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun manbalar bilan ishlashga ustuvorlik beradigan, ma'lumotlarni qiyosiy-mazmunli tahlil qilish va yakuniy xulosalar chiqarishga qaratilgan ijodiy-faol muhit yaratish zarur. Buning uchun o'quvchilarni tadqiqot o'tkazishga yordam beradigan zarur vositalar, elektron adabiyotlar, dasturlar, sifatli onlayn kurslar va internet resurslari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega [10,11].

MUHOKAMA

Shu jihatlariga ko'ra, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda raqamli ta'lim bir qator ijtimoiy, psixologik, pedagogik, tashkiliy va iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin:

Umumiy qilib aytganda:

Birinchidan, ijtimoiy imkoniyatlar: raqamli ta'lim o'quvchilarni tadqiqot jarayonida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar bir-biri bilan va o'qituvchilar bilan onlayn platformalar, forumlar yoki chatlar orqali muloqot qilishlari mumkin, bu esa g'oya va fikr, tajriba almashish uchun yaxshi imkoniyat hamda vaqtdan maqsadli foydalanish hisoblanadi.

O'quvchilar dunyoning turli mamlakatlarida yashovchi tengdoshlari bilan muloqot qilishlari va hamkorlik qilishlari mumkin, bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va turli amaliy kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar onlayn-hamkorlik va hujjat almashish instrumentlaridan foydalangan holda loyihalar, ijodiy ishlar va tadqiqotlar ustida guruhlarda ishlashlari uchun raqamli imkoniyat yaratiladi. Bu holat fikr va g'oya almashishga yordam beradi, bilimlarni boyitadi va intellektual tafakkur rivojlanishini rag'batlantiradi. Shuningdek, ular onlayn platformalar orqali tengdoshlari va o'qituvchilardan tadqiqot ishlari bo'yicha fikr-mulohazalarini olishlari mumkin.

Ikkinchidan, psixologik imkoniyatlar: raqamli ta'lim o'quvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantiradi. Ular o'z imkoniyatlarini, BKM asosida ta'limini muvaffaqiyatli tanlashlari, real maqsad qo'yishlari, vaqtlarini to'g'ri taqsimlashlari va intizomga, tartibga rioya qilishlari kerak. Bunday imkoniyat raqamli ta'lim orqali o'quvchilarda yangi bilimlar, maqsadga erishish yo'llari, his-tuyg'ularni to'g'ri boshqarish imkonini beradi. Shuningdek raqamli ta'lim o'quvchilariga vaqt va makonni tanlash huquqini berganligi hamda ta'limning moslashuvchanligi tufayli tadqiqotchilik

faoliyati jarayoniga qo'yilgan talablarga bo'ysinishi kabi o'zidagi mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish mas'uliyatni ham rivojlantiradi.

Raqamli ta'lim orqali o'quvchilar onlayn ta'lim materialni o'z tezligi va tushunish darajasida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilarga o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi, amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'quvchilar kichik ilmiy loyihalar ustida mustaqil ishlash orqali tanqidiy fikrlash, mustaqil tahliliy va muammoga yo'naltirilgan ko'nikmalarni rivojlantirishlari va amalda qo'llashlari mumkin.

O'quvchilar kichik tadqiqotlar natijasida omma oldida ma'ruza qilish yoki katta guruhlarda muloqot qilish, nutq so'zlashda qo'rquvni engish kabi ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, pedagogik imkoniyatlar: raqamli ta'lim o'qituvchilarga har bir o'quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qitishni individuallashtirish, mustaqil bilim olish imkonini beradi. Pedagog yordamida o'quvchi anglashda qiynalgan mavzuni chuqurroq o'rganishni xohlasa, unga qo'shimcha materiallar, topshiriq va resurslarni taqdim etishlari mumkin.

Raqamli ta'lim orqali o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga elektron darsliklar, videoma'ruzalar, interaktiv topshiriqlar va testlar kabi turli onlayn resurslardan foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda o'quv jarayonini boyitib, ta'lim oluvchilarga turli shakldagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Shuningdek, o'qituvchilar video darslar, viktorinalar va onlayn testlar kabi interfaol o'quv materiallarini yaratish uchun onlayn-instrumentlardan foydalanishlari mumkin, bu esa o'quvchilar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Raqamli ta'limdan foydalanib, o'qituvchilar onlayn platformalardan turli mavzularda munozaralar, forumlar va jamoaviy ishlarni tashkil etishda foydalanishlari mumkin, bu esa o'quvchilarning faol o'zaro munosabatini va

tanqidiy fikrlashni, mustaqil shaxs sifatida rivojlantirishga ham yordam beradi.

Raqamli ta'lim muhiti orqali o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda vaziyat taqozosi bilan tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. U onlayn resurslar va manbalar bilan ishlashga ustuvorlik beradi, badiiy asarni, turli ma'lumotlarni qiyosiy-mazmunli tahlil qilish, yakuniy xulosalar chiqarishga qaratilgan ijodiy-faol, sog'lom o'quv dars mazmuni yaratadi.

To'rtinchidan, tashkiliy imkoniyatlar: raqamli ta'lim modeli ta'lim oluvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quv jarayonini moslashuvchan va qulay grafik asosida tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchilar o'quv materiallarini ular uchun qulay bo'lgan dars mashg'ulotida, belgilangan vaqt va xavfsiz ta'lim maskanida yoki, onlayn platformalar orqali mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv ayniqsa, ish bilan band yoki boshqa majburiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning o'qishga barqaror jalb etilishida, samarali natijaga erishishlari uchun dolzarblik kasb etadi.

Natijada o'qituvchilar onlayn ma'ruzalar, darslar va individual maslahatlar orqali o'quvchilarni samarali qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa o'quvchilarning kichik tadqiqot olib borishlarida vaqt resurslarini oqilona boshqarish va ta'lim jarayonini yanada maqsadli tashkil etish imkonini yaratadi.

Raqamli ta'lim maktab sharoitida o'quvchilarni adolatli baholash instrumentaridan oqilona foydalanish ya'ni onlayn testlar, topshiriqlar va loyihalar orqali ularning shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish va yutuqlarini real baholashni osonlashtiradi.

Beshinchidan, iqtisodiy imkoniyatlar: raqamli ta'lim tizimi iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi. Bunda maktab sharoitida onlayn

platformalar va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish orqali o'quv materiallarini takroriy ishlatish, ularni ko'plab o'quvchilarga bir vaqtning o'zida etkazish imkoniyati mavjud bo'ladi. Mazkur holat esa bosma nashrlar va boshqa an'anaviy o'quv vositalariga bo'lgan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi, sarf xarajatlar tan narxi kamayishi ijodkorlik muhitiga hech qanday salbiy ta'sir qilmaydi.

Umumiy qilib olganda, raqamli ta'lim formati maktabda an'anaviy dars shakliga nisbatan o'quvchilardan yo'l va turar joy va boshqa qo'shimcha xarajatlarni talab qilmasligi bilan yanada qulaydir. Ayniqsa, xalqaro ta'lim dasturlari doirasida bu yondashuv iqtisodiy jihatdan juda foydali va samarali usul sifatida baholanadi.

Uzluksiz ta'limning maktab sharoitida o'quv jarayonining mazmuni va tashkiliy shakllarini modernizatsiyalashda mos infratuzilmadan tashqari pedagoglarning innovatsion faoliyati ham muhim omil sanaladi. Raqamli ta'lim uchun, o'quvchilarni kichik tadqiqotlarga tizimli adaptiv o'quv muhitini yaratishda, ta'lim resurslarini kasbiy-axborotli tayyorlashda pedagogikaning metodologik asoslariga tayanildi. Ushbi tizimli faoliyat diagnostika, ijodiy hamkorlik mavzuli korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya nazariyalariga oid manbalar bilan ishlashda o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'limda, ayniqsa adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarni kichik tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning samarali pedagogik imkoniyatlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Raqamli vositalarning an'anaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirilishi o'quvchilarning mustaqil ishlashi, ilmiy manbalarni izlash va tahlil qilish, badiiy matnlarni qiyoslash hamda asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarning ilmiy doirada fikrlashi rivojlanish jarayoni

takomillashtirishiga erishildi. Adabiyot darslarida raqamli ta'lim resurslaridan oqilona foydalanish, mustaqil, an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarida vaqt va makonning qulay moslashuvchanligida differensial yo'nalgan holda o'zlashtirish imkoniyatining metodik ratsional va optimal shakllari sifatida amaliyotga joriy etish bo'yicha ta'limiy tajribalar olib borishga asos bo'ldi.

Tadqiqot davomida kichik tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion-qadriyatli, bilim-nazariy, amaliy-tadqiqotchilik va raqamli-texnologik tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi muhimligi aniqlandi. Mazkur komponentlarning izchil rivojlantirilishi o'quvchilarning tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish, nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash va raqamli vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyot darslarida elektron matnlar, multimedia materiallari, onlayn topshiriqlar, testlar, elektron manbalar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli muhit o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini kengaytirib, axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va taqdim etish ko'nikmalarini takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
3. Nargiza Nurmatova Saidovna. O'quv jarayonini tashkil etishdagi kreativ integratsiya // Международный научно-образовательный журнал “Образование, наука и инновационные идеи в мире”
<http://www.newjournal.org/> №85 2026-01-12 396-399-betlar

4. Usmanboeva M.X. va boshq. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. – Toshkent, 2016.
5. Yaxiyaxonova M. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – 2025.
6. Nurmatova Nargiza Saidovna. Research components in school education // International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23 American Academic publishers, volume 6, issue 02,2026. Journal: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
7. Umarova Z.A. Talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar // Raqamli ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2024. – B. 53–56.
8. Nilufar Yuldasheva Abdullayevna, Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich, Nurmatova Nargiza Saidovna, G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi // Umumiy o'rta ta'lim tizimida pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil va raqamli shakllari // “Raqamli infratuzilmani joriy etish: muammo va innovatsion yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman Toshkent 2026 19-20 - fevral. 677-681 betlar.
9. Qurbonova M.F. Individual ta'lim – innovatsion o'qitish usuli // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 4, №3. – B. 394–399.
10. Nurmatova Nargiza Saidovna Zamonaviy bilimlarni intensiv integratsiyalashda va o'qitishda tadqiqotchilik metodlari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali 2025-yil, dekabr, 12-son. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18045401> (Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (31.10.2024 y., №363/5))
11. Muhiba Yaxiyaxonova. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – 2025.